

## XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil 1 yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2009,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 32,9 ming kishiga yoki 1,7 foizga ko'paydi.

### Buxoro viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023 yil 1 yanvar holatiga)

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>			<i>Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foiz</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2009,8</b>	<b>740,5</b>	<b>1269,3</b>	<b>101,7</b>	<b>102,0</b>	<b>101,5</b>
Buxoro sh.	289,2	264,3	24,9	101,9	102,1	100,0
Kogon sh.	63,8	63,8	-	102,3	102,3	-
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	174,8	40,0	134,8	101,5	101,6	101,5
Vobkent	145,9	28,2	117,7	101,6	101,9	101,5
Jondor	182,3	35,0	147,3	101,6	102,1	101,5
Kogon	82,6	6,2	76,4	101,8	104,4	101,6
Olot	102,8	38,7	64,1	101,4	101,7	101,2
Peshko'	128,9	16,5	112,4	101,7	102,6	101,6
Romitan	148,9	37,2	111,7	101,7	101,9	101,7
Shofirkon	184,3	42,6	141,7	101,4	101,7	101,4
Qorako'l	169,7	65,0	104,7	101,4	101,4	101,3
Qorovulbozor	19,5	11,1	8,4	102,2	102,4	102,0
G'ijduvon	317,1	91,9	225,2	101,7	102,2	101,5


**Doimiy aholi sonida erkak va ayollar to'g'risida ma'lumot**  
(2023 yil 1 yanvar holatiga)

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkak</i>	<i>ayol</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2009,8</b>	<b>1007,3</b>	<b>1002,5</b>
Buxoro sh.	289,2	143,6	145,6
Kogon sh.	63,8	31,0	32,8
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	174,8	87,6	87,2
Vobkent	145,9	73,4	72,5
Jondor	182,3	90,3	92,0
Kogon	82,6	41,0	41,6
Olot	102,8	51,5	51,3
Peshko'	128,9	64,6	64,3
Romitan	148,9	75,5	73,4
Shofirkon	184,3	92,9	91,4
Qorako'l	169,7	84,0	85,7
Qorovulbozor	19,5	9,7	9,8
G'ijduvon	317,1	162,2	154,9

2023 yil 1 yanvar holatiga Buxoro viloyatining shahar va tumanlar kesimida eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 317,1 ming kishini (viloyat aholi sonidagi ulushi 15,8 foiz), Buxoro shahrida 289,5 ming kishini (14,4 foiz), Shofirkon tumanida 184,3 ming kishini (9,2 foiz) va Jondor tumanida 182,3 ming kishini (9,1 foiz) tashkil etdi.

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'lish sur'ati

(2023 yil 1 yanvar holatiga, foizda)



Hududlar bo'yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng yuqori o'sishi Kogon shahrida (2,3 foiz), Qorovulbozor tumanida (2,2 foiz), Buxoro shahrida (1,9 foiz) va Kogon tumanida (1,8 foiz) kuzatildi.


## Aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2022 yil, 1-yanvar kishi)

	<i>Jami aholi soni</i>	<i>shundan:</i>			
		<i>0-2 yosh</i>	<i>3-6 yosh</i>	<i>7-16 yosh</i>	<i>0-16 yosh</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 976 823</b>	<b>123 964</b>	<b>150 696</b>	<b>329 401</b>	<b>604 061</b>
Buxoro sh.	283 822	15 170	17 490	46 113	78 773
Kogon sh.	62 335	3 405	4 051	10 516	17 972
<i>tumanlar</i>					
Olot	101 359	6 212	8 026	17 076	31 314
Buxoro	172 241	10 282	12 328	28 357	50 967
Vobkent	143 577	9 282	11 169	23 057	43 518
G'ijduvon	311 770	20 732	25 296	53 972	100 000
Kogon	81 123	5 491	6 697	13 816	26 004
Qorako'l	167 399	11 168	13 554	28 544	53 266
Qorovulbozor	19 072	1 238	1 390	2 984	5 612
Peshko'	126 700	8 259	10 622	21 339	40 220
Romitan	146 345	9 659	11 828	23 587	45 074
Jondor	179 362	11 280	14 433	31 086	56 799
Shofirkon	181 718	11 786	13 812	28 944	54 542

## Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022 yil 1 yanvar; jamiga nisbatan foizda)




## 2022 yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilish, nikoh va nikohdan ajralishlar

	kishi			har 1000 kishiga	
	2021 yil	2022 yil <sup>1)</sup>	o'sish, kamayish	2021 yil	2022 yil
Tug'ilganlar	43173	45051	1878	22,0	22,6
O'lganlar	9129	9069	-60	4,7	4,5
shu jumladan: 1 yoshgacha o'lgan bolalar	327	306	-21	7,6	7,1
Tabiiy o'sish	34044	35982	1938	17,3	18,1
Nikohlar	16923	16227	-696	8,6	8,1
Ajralishlar	2084	2561	477	1,1	1,3

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot


## 2022 yil yanvar-dekabr oylarida tugʻilganlar

(har 1000 kishiga)




## Doimiy aholi soni

(2023 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)



**Tug‘ilish.** 2022 yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 45051 kishini (bu erda va bundan keyin tug‘ilganlar sifatida faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (43173 kishi) nisbatan 1878 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 22,6 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (22,0 promille) nisbatan 0,6 promillega ko‘paydi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti**  
(2022 yil yanvar – dekabr)



*Ma'lumot uchun:*

*2022 yil davomida eng ko'p tug'ilish avgust oyida, ya'ni 4 716 kishi qayd etilganligi kuzatildi*

Tug‘ilish koeffitsientining sezilarli darajada o‘shishi Buxoro (19,0 promilledan 26,8 promillega) va Kogon (20,1 promilledan 27,5 promillega) shaharlarida qayd etildi.

Ma'lumot uchun:

Oxirgi 3 yillikda Buxoro viloyatida eng yuqori tug'ilish 2022 yilda, ya'ni 45,1 ming bola, 2021 yilda, ya'ni 43,2 ming bola, aksincha eng past - 2020 yilda, ya'ni 41,5 ming bola qayd etilgani kuzatildi.


**O'lim darajasi.** 2022 yil yanvar-dekabr oylarida o'lganlar soni 9069 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (9129 kishi) nisbatan 60 taga kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-dekabrda 4,7 promille).

Ma'lumot uchun:

2022 yil davomi eng ko'p o'lim fevral oyida, ya'ni 869 kishi qayd etilgani kuzatildi.

### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2022 yil yanvar – dekabr)






O‘lim sonining kanoyabrganligi barcha tumanlarida kuzatildi. Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 61,6 foiz qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,4 foiz o‘simtalardan, 5,6 foiz baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,6 foiz ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 5,5 foiz nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 1,0 foiz yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,3 foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi**

*(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)*



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil yanvar-dekabr oylarida 1 yoshgacha bolalar o'limi 306 nafarni tashkil etib, go'daklar o'limi koeffitsienti 7,1 promilleni (2021 yil yanvar-dekabr oylarida 7,6 promille bo'lgan) tashkil etdi.

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6236 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 9273 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 3037 kishiga (2021 yilning shu davrida minus 4319 kishi) teng bo'ldi.

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi G'ijduvon tumani (minus 727), Buxoro shahar (minus 679 ) hamda Qorako'l (minus 608 ) tumanida qayd etildi. Migratsiya saldosini ijobiy darajasi Kogon (plyus 276 ) va Buxoro (plyus 250 ) tumanlarida kuzatildi.

**Aholi migratsiyasi**  
(yanvar-dekabr, kishi)


	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldosini</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6672</b>	<b>6236</b>	<b>10991</b>	<b>9273</b>	<b>-4319</b>	<b>-3037</b>
Buxoro sh.	1630	1584	2783	2263	-1153	-679
Kogon sh.	481	494	575	456	-94	38
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	1232	101	749	760	483	250
Vobkent	303	257	649	582	-346	-325
Jondor	206	202	443	497	-237	-295
Kogon	792	739	540	463	252	276
Olot	148	127	480	377	-332	-250
Peshko'	176	169	343	322	-167	-153
Romitan	222	243	427	359	-205	-116
Shofirkon	356	370	1092	897	-736	-527
Qorako'l	158	162	992	770	-834	-608
Qorovulbozor	371	262	210	183	161	79
G'ijduvon	597	617	1708	1344	-1111	-727

**Nikohlar.** 2022 yil yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlarida 16227 ta nikohlar olingan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 8,1 ta nikoh tuzish (2021 yilning tegishli davrida 16923 ta) koeffitsienti 8,6 promillega kuzatildi.

*Ma'lumot uchun:*

*2022 yil davomida eng ko'p nikoh dekabr oyida, ya'ni 1 843 ming birlik qayd etilgani kuzatildi*

Nikoh tuzish koeffitsientining o‘shishi Qorovulbozor tumanida (6,9 promilledan 7,5 promillega) kuzatildi.



**Nikohdan ajralishlar.** 2022 yil yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2561 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 1,3 ta nikohdan ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 2084 ta) nisbatan 1,1 ko‘paydi. Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada o‘sishi Romitan tumanida (0,7 dan 1,2 promillega) kuzatildi.

*Ma'lumot uchun:  
2022 yil davomida eng ko'p nikohdan ajralish mart oyida, ya'ni 245 birlik qayd etilgani kuzatildi.*

**Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(yanvar-dekabr)

